

“Hayot faoliyati xavfsizligi” yo‘nalishi talabalarining soxaga oid yangi texnikalar bilan tanishuvi

Ma’lumki, Favqulodda Vaziyatlar Vazirligining Maxsus vazifalar bo‘yicha Respublika qutqaruv markazi hamda “Hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasini muntazam ravishda talabalar bilan uchrashuvlar tashkil etib borishadi. Ushbu galgi uchrashuv markazda o’tkazildi. 2020 yil 10 fevral kuni “Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash” fakul’teti “Hayot faoliyati xavfsizligi” yo‘nalishi 4-bosqich talabalari markazga bordilar. U erda soxaga doir zamonaviy ishlab chiqarish vositalari, ularning ishlash tartibi bilan tanishdilar. Ushbu mashg’ulot talabalar uchun mazmunli va qiziqarli o’tdi. Talabalar o’zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan etarlicha javoblarni olishdi.



HFX kafedrasи dotsenti N.Sayidxo`jayeva ma`lumoti